



**IXTISOSLASHTIRILGAN YORDAMCHI MAKTAB O'QUVCHILARINING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Nurmuxamedova L.Sh

Nizomiy nomidagi O'zMPU Oligofrenopedagogika kafedrası p.f.n., dots.

Nosirova Farzona Alisher qizi

Oligofrenopedagogika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola aqli zaif bolalarning aqliy rivojlanmaganligi barcha faoliyat turlarida, ayniqsa ta'lim, shuningdek, hissiy-irodaviy sohada yaqqol namoyon bo'lishi haqida ma'lumot beradi. Aqli zaif bolalarda e'tibor beqaror, uning hajmi torayadi, idrok jarayonlari sekinlashadi. Aqli zaif maktab o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasini murakkablashtiradigan tafakkur va nutqning rivojlanmaganligi predmetlarning belgilarini tahlil qilishda, umumlashtirish va taqqoslashda, sabab-oqibat munosabatlarini tushunishda namoyon bo'lishini ochib beradi.

Kalit so 'zlar: Aqli zaiflik, aqliy kamchiliklar, klinik-psixologik, oliy nerv faoliyati, Ixtisoslashtirilgan maktab;

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, что умственное недоразвитие умственно отсталых детей проявляется во всех видах деятельности, особенно в образовательной, а также эмоционально-волевой сфере. У умственно отсталых детей внимание неустойчиво, его объем сужается, процессы восприятия замедляются. данной статье представлена информация о том, что умственное недоразвитие умственно детей проявляется во всех видах деятельности, особенно в образовательной, а также эмоционально-волевой сферах связей.

Ключевые слова: Умственная отсталость, умственная отсталость, клинико-психологическая, высшая нервная деятельность, специализированная школа;

Annotation: This article provides information on the fact that mentally underdevelopment of mentally retarded children is evident in all types of activities, especially in education, as well as in the emotional-volitional sphere. In mentally retarded children, attention is unstable, its volume narrows, perceptual processes slow down. his article provides information on the fact that mentally underdevelopment of mentally retarded children is evident in all types of activities, especially in education, as well as in the emotional-volitional sphere. In mentally retarded children, attention is unstab.

Keywords: Mental retardation, mental retardation, Clinical-Psychological, higher nervous activity, specialized school;

Aqli zaiflik (aqli kam, oligofreniya grekcha oligos-kam, freniya-aql, idrok)- bosh miyaning tug'ma yoki ortirilgan organik jarohatlanishi natijasida, avvalo intellektual faoliyatida psixikkasini turg'un rivojlanmaslidir. Aqliy kamchiliklar emotsional iroda sferasida, nutqida, motorikasida shaxsiyatini umumiy rivojlanmay qolishiga olib kelishi mumkin.

Aqli zaiflikning klinik-psixologik ko'rinishida yetakchi nuqson bilish faoliyatining rivojlanmay qolganligidir. Bilish faoliyatining pasayganligi fikrlash operatsiyalari, psixik



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

jarayonlarning sur'ati, harakatchanligining buzilishi, diqqat, xotira va bir qator po'stloq funksiyalarning rivojlanmay qolganligida namoyon bo'ladi.

Aqli zaiflikning etiologiyasi turlichadir. Aqli zaiflik homilaning ona qornidaligida, tug'ilishda yoki ilk rivojlanish davrida markaziy nerv tizimining genetik buzilishlari, jarohatlar, asfiksiya, infeksiyalar, intoksikatsiyalar oqibatida kelib chiqadi.

Aqli zaiflik uchun nutqning rivojlanmaganligi xarakterlidir. Aqli zaif bolalarning nutqida nuqsonlar keng tarqalgan bo'ladi, ular patogenez va simptomatikasining murakkabligi bilan ifodalanadi. Bunday bolalarda nutqidagi nuqsonlarga ularning bilish faoliyati rivojlanmaganligi yoki bir nechta boshqa sabablar bilan bog'liq bo'ladi (eshitish qobiliyati pasayishi, nutqiy motorikadagi nuqsonlar, artikulyatsion apparatini tuzilishidagi kamchiliklar va boshqalar).

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining lug'at zahirasiining kambag'alligi, tovushlarni to'g'ri qo'llay ololmaslik, lug'atini faollashtirishdagi, passiv lug'atini aktivlashtirishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Ular ko'pgina predmetlarning nomini, predmetlarning qismlarini bilmaydilar, umumlashtirish xarakteriga ega bo'lgan so'zlar lug'atida yo'q, semantik o'xshashlikka ega bo'lgan so'zlarni almashtiradilar. Intellektual rivojlanmagan bolalarning passiv lug'ati faol lug'atiga nisbatan kengroq, lekin qiyinchilik bilan amalga oshadi; ko'pgina so'zlari tushunarsiz bo'ladi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining oliy nerv faoliyatining asosiy xususiyatlari - bu bosh miya qobig'ining funksiyalarining sustligi, ichki zaif jarayonlar faoliyatining tormozlanishi, nerv jarayonlari xarakatsizligi, himoya orqali tormozlanish. Bunday bolalarda oliy nerv faoliyatining o'ziga xos muhim tomoni - birinchi va ikkinchi signal sistemasining o'zaro xarakatlanishidagi buzilishlarning borligi, bu esa o'z navbatida ikkinchi signal sistemasini rivojlantirmasligini tushuntiradi. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining oddiy so'zli yo'llanmalarga qaraganda, ko'rgazmali vositalar orqali ko'rgazmali idrokklariga tayangan xolda ko'proq bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bunday bolalarda nutqni nazorat etish funksiyasi sustlashgan bo'ladi, bu esa meyorida rivojlanayotgan bolalarning erta xulqining rivojlanishida muhim o'rin kasb etadi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining nutqiy nuqsonlar tizimli xarakterga ega bo'lib, unda nutqning barcha komponentlarida: nutqning fonetiko-fonematik, so'z boyligi, nutqning grammatik qurilmasi tomonida kamchiliklar kuzatiladi. Impressiv hamda ekspressiv nutqida; og'zaki va yozma nutqida buzilishlar kuzatiladi. Intellektual nuqsonli bolalarning u yoki bu darajasida nutqiy faoliyat operatsiyalari shakllanmaganligi kuzatiladi: motivatsiyasining sustligi, nutqiy muloqotga bo'lgan xoxishning pastligi, nutqiy dasturlashning qo'pol buzilishi, nutqiy dasturni tuzish, amalga oshirish hamda nazorat etishdagi kamchiliklar, nutqiy faoliyat maqsadi va motiv natijalarini mos kelmasligi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kommunikativ xulqi o'ziga xosdir, bu boshqa insonlar bilan muloqot qilishga, atrof olamni bilishga bo'lgan talabining pastligi bilan bog'liqdir. Nutqiy muloqotga bo'lgan xoxishning pastligi tufayli bolalar savollarga javob bermasliklari, muloqotni tezda to'xtatishlari, o'yinni jimgina o'ynashlari mumkin, biroq keyinchalik muloqot qilishga bo'lgan xoxish o'z fikrlarini bildirish xajmini kengaytiradi.

"Oligofreniya" terminini Emil Krepelin taklif etgan. Oligofreniyani tug'ma psixik nuqson sifatida ortirilgan aqli zaiflik yoki demensiyadan (de-lotin tilidan olingan bo'lib - qo'shimcha. xarakatlari past, sust, mens- aql, idrok degan ma'noni bildiradi) farq qiladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Олигофренияning sabablari turlichadir. Etiologik belgilar bo'yicha oligofreniya ikkita asosiy guruhga ajratiladi:

1. Endogen (genetik) ta'sirlar oqibatida kelib chiqqan, irsiy patologiya bilan bog'langan yoki oilada mavjud bo'lgan yoki ushbu individda birinchi marta paydo bo'lgan oligofreniya;

2. Ekzogen ta'sirlar natijasida (homilalik yoki postnatal ontogeneznining dastlabki bosqichlaridagi infeksiyalar, intoksikatsiyalar, bosh miya travmalari) kelib chiqqan oligofreniya.

Aqli zaiflikda sezish a'zolarining birlamchi jarohatlanishi bo'lmasa ham, idrok qilish to'liq bo'lmay, atrofda haqiqatni yetarlicha aks ettira olmaydi.

Hissiy-irodaviy doiraning rivojlanmay qolishi ham oligofreniya uchun xosdir. Hislarning bir xilligi va differensiyani kamligi, kechinmalarning yo'qligi bilan yoki kambag'alligi, intilishning sustligi kuzatiladi. Hissiy reaksiyalar asosan bevosita ta'sirlagichlar asosida yuzaga keladi.

Hissiy doiraning rivojlanmay qolganligi psixik faollikning sustligi, atrofga bo'lgan qiziqishning yetarlicha bo'lmasligi tashabbusning, mustaqillikning yo'q bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, affekt yoki moyillikni bosa olmaslik ko'pincha arzimagan sabablarga ko'ra impulsivlikni, affektiv reaksiyalarni (jahlning birdaniga va tez chiqishi, tajovuzkorlikni) yuzaga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бобоева, С.А. (2021). Коррекция педагогика ва махсус таълим. – Тошкент: "Маърифат".

2. Мамажонов, И., ва бошқ. (2017). Дарсдан ташқари фаолиятни ташкил этиш. – Тошкент: "Ўқитувчи".

3. Жўраева, М., Ҳайитова, Г. (2022). Мактабгача ва мактаб ёшидаги болаларда географик тушунчаларни шакллантириш // "Болалар психологияси ва педагогикаси" журналы, №3.

4. Жамолова, Ш. (2023). Ёрдамчи мактаб ўқувчиларининг билим, кўникма ва малакаларини баҳолаш усуллари// "Махсус таълим" журналы, №2.

5. Vygotsky, L.S. (1983). Defectology and Developmental Psychology. – Moscow: Pedagogika (asosiy nazariy manba sifatida).

6. Azizxo'jayeva, N.N. (2004). Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: "Fan va texnologiya".